

QIZLAR TARBIYASIDA MAKTAB VA MAXALLA XAMKORLIGI.

47-maktab psixologgi

*Psixolog- Jamoliddinova Zulfiya Jalilovna**Chortok tumani.*

Annotatsiya: Yosh avlodni yaxshi xulqli, vatanparvar, mehnatsevar qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Yosh avlod tarbiyasida maktab asosiy rol o'ynaydi va tabiiyki bu jarayon ta'lim bilan birga olib boriladi. Ushbu maqolada o'quvchilarga ta'lim - tarbiya berishda ota – onalar bilan hamkorlik qilish masalalari haqida mulohaza yuritilgan. Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, mehnat, o'qituvchi, bola, o'quvchi, hamkorlik, jamiyat, xalq, ota-ona, shakl, majlis, oila.

Аннотация: В воспитании подрастающего поколения добродушными, патриотичными и трудолюбивыми необходимо особое значение придавать их юным сторонам и характеру, так как без них цель воспитания не может быть достигнута. Школа играет главную роль в воспитании подрастающего поколения, и естественно этот процесс осуществляется вместе с образованием. В данной статье рассматриваются вопросы сотрудничества с родителями в обучении и воспитании учащихся. Ключевые слова: образование, воспитание, работа, учитель, ребенок, ученик, сотрудничество, общество, люди, родители, форма, собрание, семья.

Abstract: In raising the young generation to be good-natured, patriotic, and hardworking, it is necessary to give special importance to their young aspects and character, because without them, the goal of education cannot be achieved. The school plays the main role in the upbringing of the young generation, and naturally, this process is carried out together with education. This article discusses the issues of cooperation with parents in the education and upbringing of students. Key words: education, training, work, teacher, child, student, cooperation, society, people, parents, form, assembly, family.

Darhaqiqat, onalar farzand tarbiyasida hamisha oilada muhim o'rinn tutganlar. Bola tug'ilishidan oldin, hatto juft tanlayotgan vaqtdayoq bo'lajak onaga e'tibor qaratiladi. Farzand tug'ilgandan keyin otasi ish yo boshqa sabablar bilan ko'p vaqt uyda bo'lmaydi, tarbiyaga doir zarur o'gitlar, ko'rsatmalar bergen holda, asosiy ishi moddiy ta'minot bo'lib qolaveradi. Illo, onasoliha bo'lsa, farzandi kelajakda buyuk inson bo'lib yetishishi uchun astoydil harakat qiladi. Agar "Nega farzand tarbiyasi yolg'iz mening zimmamda bo'lar ekan?" deya u ham tarbiya bilan shug'ullanmasa,

nafaqat bir bolaning, balki butun boshli millatning kelajagi barbod bo‘ladi. Ulug‘larimizning hayotlariga nazar soladigan bo‘lsak, ularning onalari. Hatto otalari vafot qilganda ham moddiy ta’minotni o‘z zimmalariga olishgan ham farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishgan. Yillar davomida chekkan zahmat natijasi o‘laroq Imom Ahmad Imom Buxoriy kabi buyuk insonlarni yetishtirgan.

Ayol kishi oilaning, jamiyatning ko‘rkidir. Qizlarning ko‘rki esa sharm-hayo, iffat, sadoqat, ro‘zg‘or yuritishdagi mahorat, pazandachilik, ishbilarmonlik, tejamkorlik, tadbirkorlik, ma’naviy-axloqiy yetuklikdadir. Shuning uchun qiz bola Alloh yaratgan betakror, sehrli mo‘jizadir. Faqat ayolgina insonni yaratish qobiliyatiga ega. Qiz bola tarbiyasi o‘ta nozik masaladir. Xalqimizda “onasini ko‘rib qizini ol” degan gap bor. Yoshligidan qiz bolani ozodalikkha, shirinsuxanlikka, o‘zidan kattalarni hurmat-izzat qilishga undash lozim. Onasining munosabati, uy tutishlari qanday bo‘lsa, kelgusida bu xislatlar qizlarga o‘tadi. Kelgusida qizlar bo‘lajak ona, ardoqli uy bekasi bo‘ladilar. Biz qizlarimizga hayotning past-balandligini yengib o‘tishlarini uqtirib o‘qitishimiz shart. Milliy qadriyatlar, urf-odatlarimizni, kiyinish madaniyatimizni har bir qizimizga yetkazishimiz lozim. Buning uchun qizbola dunyoga kelgan kundan boshlab undagi jasoratni, ayollik latofatini, hamda uni oilaning farishtasi etib tarbiyalab borish zarur. Oilada borni yo‘q qiladigan ham, yo‘qdan bor qiladigan ham ayol ekanligini unutmaslik kerak. Xalqimizda erni er qiladigan ham xotin, qaro yer qiladigan ham xotin degan maqol bor. Agarda ayol tejamkor, tadbirkor, uddaburon bo‘lsa, oilada baraka bo‘ladi. Isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik borasida “Sarfagari sari oshton, beh az savdogari Hinduston degan” tojik xalq maqoli bor. Shuning uchun ham ota-onaning o‘g‘il bola tarbiyasiga nisbatan qiz bola tarbiyasida mas’uliyati nihoyatda kattadir. Qiz bola tarbiyasi bejiz davlat siyosati darajasida bo‘lib qolmagan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ham ayollarning taqdiri uchun mas’uliyatni oshirishga da’vat etayotganini unutmaslik kerak.

Prezidentimizning “Ayniqsa, qizlarimizning salomatligini asrash, ularning zamонавији bilim va kasb-hunarlar egasi bo‘lib voyaga yetishi, jamiyatda munosib o‘rnini topishi uchun biz barchamiz – ota – onalar, jamoatchilik, mutasaddi rahbarlar javobgar va ma’suliyatimizni yanada kuchaytirishimiz zarur. Nega deganda qiz bola bo‘lg‘usi oila bekasi, kelajagimiz egasidr. Bugun biz ularga qanday ta’lim-tarbiya bersak, ertaga ular yangi avlodimizga shunday tarbiya beradi” degan gaplariga amal qilishimiz lozim.

Onalar farzandlarini faqat baxt hayotga boshlaydi, burgut kabi balo-qazolardan, ofat-kulfatlardan ko‘riqlaydi, kerak bo‘lsa, jonini fido qilishga tayyor turadi. Ayniqsa, qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda onaning o‘rnini hech kim bosa olmaydi. O‘zi bilgan, qurgan hayot mакtabida orttirgan tajribasini, bisotidagi bor axloq-odob xazinasini, ro‘zg‘or-shunoslik sir-asrorini qizidan ayamaydi va unga o‘rgatadi

Mustaqil O`zbekistoning xalqparvar siyosati natijasida ijtimoiy-iqtisodiy, g`oyaviy-siyosiy, etnik-madaniy hayotida kun sayin jiddiy o`zgarishlar bo`lmoqda. Jamiyatimiz moddiy va ma`naviy rivojining yangi omillari xalqning milliy o`z-o`zini anglashda samarali ta`sir ko`rsatyapti. Mamlakatimiz hayotining barcha tomonlarini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish xalqimiz madaniy kuch-qudratini ma`naviy jihatdan tiklash, g`oyaviy jihatdan yangilash va o`z-o`zini anglashdan iborat muhim vazifalarni qo`ymoqda. Umumiyligi o`rtaligida maktabalarining uzluksiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratilmoqda. Hozirgi davrda mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarning mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikada sog`lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to`liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqilgan. Birgina - Ta`lim to`g`risidagi Qonunning qabul qilinishi yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, istiqbolli vazifalarni hal etishga qodir barkamol avlodni tarbiyalashga yo`naltirilganligini keltirish kifoya. Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo`naltirilgan faoliyat bo`lib, shaxsni aqliy, jismoniyligi, axloqiy, ma`naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo`lib, insonning jamiyatda yashashini ta`minlash uchun zarur bo`lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo`lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta`minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi. Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma`rifiy hayotida faol ishtirokini ta`minlashga qaratilgan barcha ta`sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuuni anglatadi. Tarbiya nafaqat oila, mukammal, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo`libgina qolmay, uning yetakchi g`oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan mafkurani ham o`z ichiga oladi. Zero, tarbiya ta`limga nisbatan kengroq bo`lgan tushunchadir. Bunday tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Shu jihatdan tarbiya ta`lim olish bilan chambarchas bog`liq holda amalga oshiriladi. Ta`lim – tarbiya orqali shaxsda ezgu ma`naviy – axloqiy sifatlar tashkil topadi. Shu o`rinda O`zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: “Albatta, ta`lim – tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya`ni xalq ma`naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan muhim omildir. Binobarin, ta`lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongini o`zgartirmasdan turib, ma`naviyatni rivojlanirib bo`lmaydi..... har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko`rish kerak. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga

ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim". Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak ma'naviyatli etib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarni singdirishda tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: - maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi; - faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi; - bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qituvchi, ota – ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta'minlash muhimdir. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko'p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog'liq. Ular quyidagi omillarni qo'llash asosida vujudga keladi: - tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqealari jamoadagi tartib qoida va xulqatvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondoshuv kabiladir; - tarbiyaviy ishlarning maqsadi, aniqligi va ta'sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart – sharoitlarni oldindan aniqlab qo'yilgan maqsadga muvofiqlashtirish; - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, muloqot va munosabatda bo'lishlari, ruhiy shart – sharoitlar yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni gigiyena qoidalariga moslash, estetik talablarga javob berishi, tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish funksiyalaridan biridir. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda o'quvchi yoshlarning faolligi ko'p jihatdan ixtiyorilik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog'liq, bunda tarbiyaviy ishlar ta'lim jarayonida olgan bilimlariga uyg'un bo'lishi, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda turli fanlarning integrasiyasi hisobga olish ijobiy xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi yosh avlodni har tamonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy g'oyani singdirishda har tamonlama ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki yosh avlodga tarbiya berish jarayonida maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarga tarbiya berish, ularga ta'lim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, amalga oshirish usul va vositalari mavjud. O'qish va tarbiya jarayonining uzviyiligi ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun 1-sinfdan, maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o'quv jarayoni bilan bog'langan. Bola shaxsining shakllanishida butun ijtimoiy voqelik, xususan, uning o'zi tug'ilib o'sgan oila muhiti hal qiluvchi vazifani bajaradi. Oiladagi turmush madaniyati, mehnat xarakteri, ota onaning axloqiy saviyasi ijtimoiy masalaga, bolaning komil inson bo'lib yetishishiga ta'sir ko'rsatadi. Mehnat tarbiyasi hozirgi kun tarbiyasining zarur sharti, shaxsdagi professional barkamollikning asosidir. Mamlakatimizda umum davlat ishi bo'lgan ana shu tarbiya, ya'ni o'quvchi yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sohalardagi mehnat faoliyatiga tayyorlash, asosan,

maktabning o'rta va yuqori sinflarida amalga oshiriladi. Lekin bu ishning muvaffaqiyatlari bajarilishi boshlang'ich sinflarda va oilada turli darajada tayyorlanishga bog'liq. Bolalarga mamlakatimizda har qanday mehnat sharaflari ekanini, halol mehnat qilgan kishi yuksak qadrlanishini, mehnatdan qochadigan axloqsiz odamlarni hech kim hurmat qilmasligini, boshqalar hisobiga yashash, umuman, aqli, zukko odamga to'g'ri kelmasligini maktabdan, otaonalarning suhbatlaridan va ularning kuzatishidan iloji boricha ertaroq bilib olishlari lozim. Mehnat tarbiyasini oilada ham muvaffaqiyatlari tashkil etishga imkoniyatlar ko'p. Bolaning boshlang'ich mehnat faoliyatida otaonalarning mehnatga bo'lgan munosabatlari, harakatlari namuna sifatida xizmat qiladi. Bolalar artofidagi „mehnat“ni ko'rib tursa ham mehnatsevarlik fazilati tarkib topaveradi. Bunda otaonalar o'ylab, ehtiyyotkorlik bilan ish ko'rishlari lozim. Masalan, bolalarni mustaqillikka o'rgatishda ularga kiyinish usullarini tushuntirib, ko'rsatib berish lozim. Bola eshikdan kirib kelgan ustki kiyimlarini tartibsiz holda yechib tashlamasdan, aksincha, maxsus kiyim ilgichga ilishga odatlanishlari zarur. Oilada bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktab, mahalla bilan hamkorlikda ularning yoshlariga mos topshiriqlar berib borish, kundalik vazifalarni taqsimlab, mehnatsevarlikni tarbiyalash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, ma'muriy ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyati o'ziga xos pedagogik tizim uslub va shakllarga ega bo'lishi zarur. Ma'lumki, tarbiya o'z mazmun-mohiyati bilan milliy hamda umuminsoniy mazmunga egadir. Har bir jamiyat o'z oldiga yetuk, har tomonlama kamol topgan, o'zida ijobiy, oliyanob fazilatlarni birlashtirgan avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Boisi, tarbiyasi og'ir, ma'naviyati qashshoq yoki ma'naviyatdan mahrum bo'lgan odamdan biror ezgulik kutish mumkin emas. Chunki u yaxshilik va ezgulik haqida umuman o'ylamaydi. Atrofqa, va hatto ota-onasi, qarindosh-urug'lari taqdiriga ham befarq, loqayd holda yashaydi. Tarbiyali, ma'naviyatli inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, shuningdek, kelgusi hayot va turmushning ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shishga intiladi. Zotan, bugun xalqimizning "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" buyuk maqsadiga erishuvida ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Mazkur masala o'ta dolzarb bo'lganligidan barcha zamonlar donishlari yoshlar tarbiyasi haqida bosh qotirib kelishgan. Masalan, buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlari bor. Zardushtiylik ta'limoti uch asosiy axloqiy qoidaga tayanadi: "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal". Shu uchalasiga rioya qilgan odam zardushtlar nazdida kamolotga yetgan hisoblangan. Imom Buxoriy bu xususda yanada yorqinroq so'z aytgan: "Bolaning tabiatni rivojlanishga moyil bo'ladi, uni qanday g'oyalar bilan to'ldirish ota-onasi va ustozga bog'liq". Maktab ostonasiga oyoq qo'yish har bir bola uchun nihoyatda katta hayotiy burilishdir. Mana shu davrdan boshlab bolalikning eng beg'ubor onlariga bir

qadar cheklanishlar kirib keladi. Endi bola oilada nafaqat oilaviy ba’zi burchlarni, vaholanki, o‘z shaxsi uchun zarur bo‘lgan xususiy vazifalarni bajarishi shart davrga o‘tadi. Bu bilan uning oiladagi roli bir qarashda kamayganday emas, aksincha ko‘paygan bo‘ladi. Ya’ni u o‘z obro‘sini endi nafaqat oila a’zolari o‘rtasida, aksincha, jamiyat o‘rtasida oila obro‘sini o‘z shaxsiy harakati bilan himoya qilish davri boshlanadi. Maktab davrida turli vaziyatlar tufayli har xil tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin. Bunday vaziyatda ota-onalar farzandlariga o‘qituvchisi haqida salbiy fikr bildirmasdan, balki qandaydir tushunmovchilik tufayli o‘qituvchining noto‘g’ri yo‘l tutganligini tushuntirishi lozim. Pedagog tomonidan qandaydir noo’rin ish sodir bo‘lgan bo’lsa, ota-onalar buni farzandiga bildirmasdan, o‘qituvchisi bilan alohida gaplashishi lozim. Sababi, bu hodisa o‘quvchiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Ruhiy muhiti sog‘lom oila a’zosi bo‘lgan bolaning birinchi bor mактабга borishi qanchalik hayajonli bo‘lmасin, bola uchun jiddiy qиnchiliklar tug‘dirmaydi. Chunki maktabda o‘qituvchi hamma bolalarga bir ko‘z bilan qaraydi. Oilada ham bolaga maktabga borganligi munosabati bilan maktab uning o‘zi uchun kerak bo‘lgan burch ekanligini uqtirish kerak. Ana shunday yondashuvgina bolaga uy vazifalariga, maktabda berilgan topshiriqlarga shaxsiy burchi sifatida qarashga o‘rgatadi. O‘zini hurmat qilmaydigan shaxs boshqalarni ham hurmat qilmaydi, o‘z burchini sezgan shaxsda esa o‘z shaxsiga hurmat tuyg‘usi tobora ortib, shakllanib boradi. Bu o‘rinda tarbiyaning, maktab va oila tarbiyasining bola shaxsiyatiga bir yo‘nalishda mutanosib olib borilishi jiddiy e’tiborga molik. Boshlang‘ich sinf, ya’ni olti-to‘qqiz yoshli bolalar maktabgacha yoshdagи qiliqlarini endi takrorlashmaydi. Yosh bola o‘jarlik qilib piyolani otib yuborishi mumkin, bu holda u piyolaning sinishini o‘ylab ham o‘tirmaydi. Ammo, bunday ishni boshlang‘ich sinf bolasi qilmaydi. U endi bunday qiliqni o‘ziga ep ko‘rmaydi, chunki atrof, boshqalar uning bunday harakatiga qanday baho berishini u biladi va shundan uyaladi. Bu o‘rinda insonni jamiyat orasida shaxs sifatida shakllantiruvchi eng katta tuyg‘ulardan biri, mana shu keng ma’nodagi ijtimoiy tushuncha bo‘lmish, boshqa jonzotlar orasida uchramaydigan uyat ekanligini bilishimiz va unutmasligimiz kerak. Shuningdek, oilada bolani hech vaqt uyaltirmaslik va izza qilmaslik lozim. Har qanday inson boshqalar oldida uyalishni, uyalganlikni og‘ir esdan chiqaradi. Ko‘pchilik orasida izza bo‘lganligini bir umr esdan chiqarmasligi mumkin. Shunday ekan, oilangizda ruhiy muhit sog‘lom bo‘lsin desangiz bolangizning hozirgina qilgan noo’rin, xato, adashilgan, anglashilmovchilik yuzasidan, uning tajribasizligidan kelib chiqqan xatti-harakatini qoralab uni jazolab o‘tirmang, ayniqsa, voqeani yuziga solib, izza qilmang. Shu borada agar bu voqeadan uning biror tanishi voqif bo‘lish xavfi bo‘lsa, kechinma yanada kuchliroq tus olishi mumkin. Bolani xato bo‘lishi mumkin bo‘lgan ishlardan ogohlantirib, tarbiyalab boris, uning oiladagi o‘rnini mustahkam qiladi. Umumta’lim maktablarining o‘quvchilar oilalari bilan hamkorligining maqsadlari va shartlari o‘zaro munosabatlarni tashkil

etishning muhim tarkibiy qismidir. Ularning yutug‘i ta’lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorlik qilish shakllari va usullariga - ularning birgalikdagi muloqotini va faoliyatini tashkil etish usullariga bog‘liq. Hamkorlikning turli shakllari va usullarini tanlash maktab tomonidan amalga oshiriladi va ushbu bosqichda hal qilinishi kerak bo‘lgan muayyan vazifalarga, otaonalarning qiziqishlari va intilishlariga, shuningdek, ushbu davrda jamiyatning rivojlanish darajasiga bog‘liq. Guruh va jamoaviy hamkorlikning asosiy shakllari quyidagilardan iborat: maktab miqyosida va sinfda ota-onalar yig‘ilishi; maktab tadbirlari, konsertlar o‘tkazish; ochiq kunlar (ota-onalar kuni); ota-onalar qo‘mitasining tematik konferensiyalarini tashkil etish va ular bilan yaqindan hamkorlik qilish; ota-onalarning ijodiy guruhlari bilan ishlash, savol-javob kuni; guruh maslahatlari; ota-onalarni maktab ma’muriyati, pedagogik jamoa bilan uchrashish; ota-onalar uchun ma’ruzalar; seminarlar, treninglar; o‘quv filmlarini ko‘rish va keyingi muhokamalar; ota-onalar maktablari. Agar boshqa tasnifni ko‘rib chiqsak, umumiy ta’lim muassasasi va oila o‘rtasidagi hamkorlik shakllari an’anaviy va noan’anaviyga bo‘linadi. An’anaviy shakllar - bu barcha umumiy ta’lim muassasalari uchun umumiy bo‘lgan, yillar davomida sinovdan o‘tganlar. Bunga quyidagilar kiradi: - ota-onalar yig‘ilishi; - ota-onalar uchun ma’ruzalar; - ota-onalar bilan pedagogik suhbatlar; - oilaviy tashriflar; - tadbirlarni birgalikda tashkil etish; - individual va guruh maslahatlari; ota-onalar bilan yozishmalar; - individual uchrashuvlar va boshqalar. Hamkorlikning noan’anaviy shakllari oila bilan ishlashning zamonaviy shakllari bo‘lib, o‘qituvchilar, ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va o‘qitishda imkon qadar yordam beradi. Har bir ota-ona o‘qituvchini bolani har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan ishida qo‘llab-quvvatlashga intiladi. Ammo zamonaviy ota-onalar - bu paydo bo‘lgan muammolarni, mavjud vaziyatni tahlil qilishga qodir bo‘lgan bilimli odamlar, shuning uchun o‘qituvchi oila bilan hamkorlikning yangi shakllaridan foydalanishi kerak. Umumiy ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi hamkorlikning ko‘plab shakllari mavjud. Belgilangan maqsadlarga erishish va yuqori natijalarga erishish uchun o‘qituvchi ota-onalar bilan birgalikdagi faoliyatda turli xil hamkorlik shakllarini to‘g‘ri birlashtira olishi kerak. Har safar o‘qituvchilar tarkibi har bir oilaning xususiyatlarini hisobga olgan holda kerakli, samaraliroqlarini tanlashi kerak. Axir hamkorlikning asosiy maqsadi ota-onalar bilan ittifoqdosh bo‘lishdir. O‘qituvchilar va ota-onalarning to‘g‘ri tashkil etilgan o‘zaro aloqasi bolani yaxshiroq tushunishga, oilada va mакtabda shaxsiy ta’lim muammolarini hal qilishning eng maqbul usullarini topishga yordam beradi. O‘qituvchi esda tutishi kerakki, u foydalanadigan barcha shakllar bolalar, ota-onalar va maktab o‘rtasida ishonchli munosabatlarni o‘rnatishga, ularni bir jamoaga birlashtirishga, ularning muammolarini bir-birlari bilan bo‘lishish va birgalikda hal qilish zarurligini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Oila va maktab hamkorligi maktab hayoti davomida etadigan jarayondir. Bunda ijobjiy maktab muhitini

targ‘ib qilish quyidagi qadamlarni belgilaydi: - O‘qituvchilar maktab va oilalar o‘rtasidagi muntazam aloqani rag‘batlantiradilar va qo‘llab-quvvatlaydilar. - Hammaga hurmat bilan munosabatda bo‘lishadi. - Maktab madaniyati jamiyat va g‘amxo‘r munosabatlar tuyg‘usini rivojlantiradi. - Ota-onalar maktab faoliyatiga jalb qilingan o‘quvchining eng yaxshi manfaatlariga e’tibor qaratish. - Ijobiy harakat yo‘nalishini aniqlash. - Ota-onalarni savollar bilan uchrashuvga kelishga undash. - O‘quvchining kuchli tomonlari, ehtiyojlari, dasturlash maqsadlari va o‘qitish strategiyalari haqida ma’lumot almashish. - O‘quvchi bilan ma’lumot almashish; ota-onalar o‘qituvchilar yig‘ilishlarida qatnashib, o‘z g‘oyalari va istiqbollarini taqdim etishlari va ehtiyojlarini himoya qilishni o‘rganishlari mumkin. Ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi samarali munosabatlarning asosiy tarkibiy qismlari nima? Ota-onalar va o‘qituvchilar uchun eng katta muammo - samarali muloqot qilishdir. Bu oddiy tuyulishi mumkin, lekin ko‘pincha suhbatlar uzilib qoladi, chunki o‘qituvchi maxsus ta’lim sohasiga xos bo‘lgan tilni ishlatadi va bu ota-ona uchun notanish bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar suhbat boshida ota-onalarga tegishli so‘z birikmalarini, masalan, turar joy va modifikatsiyani tushunishlariga ishonch hosil qilishlari muhimdir. Bu keyinchalik muammolarga olib kelishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos tushunmovchilik yo‘qligiga ishonch hosil qiladi. O‘qituvchi ham ota-onani faol tinglashi kerak. Yechimlar va usullarga berilib ketish shunchalik osonki, o‘qituvchilar o‘quvchi uchun eng samarali bo‘lgan narsa haqida fikr-mulohazalarini o‘tkazib yuborishlari mumkin. Ota-onalar qaysi tayanchlar ishlayotganini va qaysi biri ishlamayotganini aniqlashga yordam beradi va muvaffaqiyatga ta’sir qiladigan o‘zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi. O‘zaro hurmat munosabatlari bilan birgalikda ijobjiy maktab muhiti mutaxassislar, ota-onalar, vasiylar va o‘qituvchilarga dasturlar va xizmatlar bilan bog‘liq muammolarni ular mojarolar manbaiga aylanmasdan oldin hal qilish uchun konstruktiv hamkorlikda ishlashga yordam beradi. Biroq, hatto eng yaxshi niyat bilan yondashilgan taqdirda ham, o‘quvchi dasturining har qanday jihatni, masalan, o‘qitish metodikasi, yordamchi texnologiyalardan foydalanish, o‘quv dasturiga o‘zgartirishlar kiritish va hokazolar bo‘yicha kelishmovchiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Hozirda ba’zi ota-onalarning maktabda o‘qituvchi tomonidan bolasiga berilgan dakki yoki tarbiyani tushunmay maktab ma’muriyatiga, o‘qituvchilarga turli tazyiq o‘tkazish holatlari uchrab turadi. Oddiy koyiganda ham uyiga aytib boradiganlari bor. Bu ishni qiladiganlarning o‘zini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan tushunchasi bor. Bu haqda gapirayotganda ota onalar avvalambor xatoni o‘zidan ham izlashi kerak. Qachonki ota-ona bolasining kelajagini o‘ylamoqchi ekan, o‘qituvchi bilan hamkorlik qilishi lozim. Buning aksini qilib o‘qituvchiga bosim o‘tkazsa, bu sinfning umumiyligi holatiga ta’sir qiladi, boshqa bolalar bilan ham ishlolmay qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya. O‘quv - metodik majmua. Buxoro 2022.
2. Nishonov U., Tursunov I. «Pedagogika kursi» Toshkent 1997 yil.
3. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. “Nodirabegim” nashriyoti. 2021-yil
4. Babanskiy Y. K. «Pedagogika» M. 1988 yil.
5. Munavvarov A. K. «Pedagogika» Toshkent 1996 yil.
6. Abdullayeva Sh. Umumiy pedagogika. O‘quv qo’llanma. Toshkent. O’qituvchi nashriyoti. 2021
7. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo’llanma. Toshkent 2019-yil. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 21-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 20.07.2023
8. Dexqanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo’llanma. Toshkent-2019 yil.
9. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik T.: Sanostandart. 2017- yil.
- 10.Yo`ldoshev.H.Q. Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla, mакtab hamkorligi konsepsiysi. T.: 2004.
- 11.Inomova K.M. «Oilada bolalarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi» Toshkent: Fan, 1999 y.
- 12.<https://fayllar.org> 13. <https://azkurs.org> 14. <https://kun.uz>